www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

MAKTABDA SO‘Z BIRIKMASINI O‘RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI

Yuldosheva Begoyim
NavDPI o‘zbek tili adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi
F.Yuldashev
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada so‘z birikmasi haqida nazariy bilimlar, so‘z birikmasining o‘rgatilishi haqida ma’lumotlar berilgan. So‘z birikmasini o‘qitishda metodlarning o‘rni, “Sherigingni top”, “T” chizmasi metodlaridan foydalanib mavzu yoritilib berilgan. Mavzuni yoritishda darslikdagi mashqlardan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: So‘z birikmasi, tobe va hokim qism, bitishiv, boshqaruv, moslashuv, so‘z turkumlari, “Sherigingni top”, “T’ chizmasi, mustaqil so‘zlar, otli birikma, fe’lli birikma.

Maktabda so‘z birikmasini o‘qitishda faqat uning “qolipi” yoki bog‘lanish ussullaridan tashqari nutqiy imkoniyatlari, nutqiy qulayligi, nutq ifodalashdagi ahamiyati hamdda ma’noni “yangilab” turuvchi vasita sifatida ham o‘rganish, o‘rgatish zamonaviy darsliklar oldida turgan muhim vazifalardan biri. Shu boisdan so‘z birikmasining o‘ziga xos usullari mavjud. Masalan:

1) ularning har ikkala qismi mustaqil so‘z turkumlariga mansub bo‘ladi. k*itob o‘qimoq, maktabga bormoq*. Lekin *ukam uchun, telefon orqali* birikuvlari ikkinchi so‘zlari mustaqil so‘z bo‘lmaganligi uchun so‘z birikmasi shaklidagi bog‘lanishlarni yuzaga keltirmaydi;

2) so‘zlarning ma’nolari o‘zaro mos bo‘lishi lozim. *Oyna* so‘zining ma’nosi *sinmoq* so‘zining ma’nosiga mos. Ammo *randalamoq, uzilmoq* so‘zlariga mos emas. Shuning uchun nutqda ma’nosi mos bo‘lmagan so‘zlarni bog‘lash xato bo‘ladi;

3) so‘zlarni bog‘lovchi qo‘shimchalar ham o‘z o‘rnida bo‘lishi kerak. *Toshkentda yashayman, ukamning daftari* birikmasida qo‘shimchalar to‘g‘ri qo‘llangan. Lekin *Toshkentga yashayman, ukamni daftari* birikmasida qo‘shimcha noto‘g‘ri qo‘llangan.

Mustaqil so‘zlarning nutqda bog‘lanishidan so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. So‘z birikmasi bo‘lish uchun:

1) kamida ikkita mustaqil so‘z bo‘lishi lozim;
2) bu so‘zlar ma’no jihatdan mos bo‘lishi kerak;
3) so‘zlarning biri ikkinchisiga ergashishi, ya’ni tobelanishi zarur;
4) qo‘shimcha va yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni bog‘lashi kerak[1].[1]

So‘z birikmasi tobe va hokim qismlardan iborat. Tobe qism bu so‘roqqa javob bo‘luvchi qism hisoblanadi va doimo hokim so‘zdan oldin keladi. Hokim qism esa tobe so‘zdan keyin kelib, so‘roqda qatnashuvchi qism hisoblanadi. Shirin kulcha – qanday kulcha? Bunda shirin so‘zi tobe qism vazifasida kelib, kulcha so‘zi hokim qism vazifasini bajaryapti.

Tobe qism gapda hokim qismni ma’nosini izohlab keladi. Keltirilgan misolda ham hokim qismdagi so‘z ya‘ni gul so‘zini izohlab, unday qandayligini bildirib kelyapti. Shu qism tobe qism hisobladi. Nutqimizdagi gaplarning hammasi ham bir birini ma’nosini izohlab kelmaydi. Masalan, nok va uzum, o‘qidi va yozdi. So‘z birikmasi hokim so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan kelishiga ko‘ra 2 guruhga bo‘linadi: otli so‘z birikma va fe’lli so‘z birikmasi. Otli so‘z birikmada fe’l so‘z turkumidan boshqa barcha ot, sifat, son, ravish va otlashgan so‘zlar bilan keladi. Go‘dakning yig‘isi, qishning tarovati. Fe’lli so‘z birikmada esa hokim so‘z fe’l bilan ifodalanadi. Raqsga tushdi, tez yugurdi singari.

O‘quvchilarga so‘z birikmasi mavzusini tushuntirishda nazariy ma’lumotlar beriladi. Nazariy bilimlar orqali ular mavzuni qisman o‘zlashtirib olishadi. Mavzuni yanada chuqur

1 Ona tili: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Dildora Abduraimova. Toshkent – 2019, 32-33 bet

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

o‘zlashtirib olishlari uchun “Sherigingni top” metodidan foydalanib mavzu o‘tilsa, mavzuni yanada yaxshi tushunib olishadi. Bu metoddan asosan o‘tilgan darsni mustahkamlashda, yangi mavzu o‘tilgandan keyin olib borilishi maqsadga muvofiq. Aynan siz birikmasi mavzusini o‘zlashtirishda bu metod juda qo‘l keladi. So‘z birikmasi haqidagu nazariy ma’lumotlarni bilib oldik. So‘z birikmasi bo‘lishi uchun so‘zlar ma’nosi bir biriga mos kelishi zarur hisoblanadi. Bu metod shundan iboratki, o‘quvchilarga qog‘oz parchalariga ko‘plab so‘zlar yozib chiqiladi. Ikkinchi bo‘laklariga shu so‘zning sherigi yoziladi. Yozilgan so‘zlar aralashtiriladi. Topshiriq shundan iboratki, o‘quvchilar shu bo‘laklar orasidan so‘z birikmasi tuzilishlari kerak. Bu metod o‘quvchilarning mantiqan o‘yladhlariga, fikrlashlariga ham qo‘l keladi. Mavzuni takrorlashda ham bu metod ajoyib natija beradi.

Gapda so‘z birikmasini hosil qiluvchi tobe va hokim qismlar bir biriga bog‘lanishiga ko‘ra 3 xil bo‘ladi: bitishiv yo‘li bilan ya’ni ohang bilan, hech qanday qo‘shimchalarsiz bog‘lanish[2].

Boshqaruv yo‘li bilan ya’ni tobe so‘zning hokim so‘zga tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi boshqaruv deyiladi[3]: kitobni o‘qimoq, maktabga bormoq.

Moslashuvli bog‘lanish qaratqich kelishigi *-ning* bilan hosil qilinadi. Bu qo‘shimcha doim egalik qo‘shimchasi bilan yonma yon keladi[4]: kitobning varog‘i, bolaning yig‘isi. Bunda qaratqich kelishigi qo‘shimchasi tobega qo‘shiladi va qaratqich, egalik qo‘shimchasi esa hokim so‘zga qo‘shiladi bu qaralmish deyiladi[5]. Moslashuvli birikma qaratqich-qaralmish munosabati ham hisoblandi. Lekin har doim ham bu qo‘shimchalar orqali bog‘langgan so‘zlar so‘z birikmasi bo‘lib kelavermaydi. Gapda ega doim kesimga bog‘lanib keladi va so‘z birikmasiga olinmaydi. Tobe bog‘lanish so‘ralganda olinadi.

“T” chizmasidan foydalanib so‘z birikmasini tushunarli va oson o‘rganib olish mumkin. Bunda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun sinf doskasiga “T” chizmasi chiziladi. Uning birinchi tomoniga tobe so‘z, ikkinchi tomoniga hokim so‘z yoziladi. Bu orqali ko‘rishimiz mumkinki, nazariy bilimlar asosida so‘z birikmasida birinchi tobe so‘z keladi, shuning uchun chizmaning birinchi tomoniga tobe so‘z yoziladi. Bu chizma orqali so‘z birikmasida tobe va hokim qismlarni topishda qiyinchilik tug‘ilmaydi, sodda va xotirada saqlab qolish oson hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy bilimlar asosida 9-sinf ona tili darsligidan “So‘z birikmasini takrorlash” mavzusidagi mashqlarning bajarilishi ko‘rib chiqsak.

8-mashq. Matnni o‘qing, so‘z birikmalarini aniqlab, hokim so‘zning tobe so‘zga bog‘lanish usullariga diqqat qiling.

Bir kishining bir necha o‘g‘illari bo‘lib, ular tez-tez o‘zaro nizo qilib turishardi. Bir kuni ota bir dasta cho‘p yig‘ib, mahkam qilib bog‘ladi va o‘g‘illariga berib: «Qani, shu cho‘plarni sindiringlar-chi!» —dedi. O‘g‘illar har qancha urinishmasin, uni sindira olmadilar. Shunda ota bog‘langan cho‘plarni yechdi va bir donadan o‘g‘illariga berdi hamda sindirishni buyurdi.O‘g‘illar cho‘plarni osonlik bilan sindirib tashladilar. Shunda ota o‘g‘illariga qarab: «Hozir nimani ko‘rgan bo‘lsangiz, sizning ahvolingizga misol. Agarittifoqda bo‘lsangiz, sizni hech kim sindira olmaydi», — dedi.[2] («Hikmatnoma»dan.)

2 Ona tili: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Muhammadjon Qodirov., Hamid Ne'matov., Muhabbat Abduraimova., Ra'no Sayfullayeva. Toshkent – 2014, 27-bet

3 Ona tili: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Muhammadjon Qodirov., Hamid Ne'matov., Muhabbat Abduraimova., Ra'no Sayfullayeva. Toshkent – 2014, 27-bet

4 Ona tili: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Muhammadjon Qodirov., Hamid Ne'matov., Muhabbat Abduraimova., Ra'no Sayfullayeva. Toshkent – 2014, 28-bet

5 A.B.Pardayev, S.A.Qurbonov. Hozirgi o‘zbek tili. Samarqand – 2021, 206-bet

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Keltirilgan gaplardan so‘z birikmasi aniqlash kerak. Buning uchun birinchi navbatda so‘z birikmasi uchun tobe va hokim qismlar mustaqil so‘z turkumidagi so‘zlar bo‘lishi kerakligiga e’tiborimizni qaratamiz. Hokim qismning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligiga qarab esa uning otli yoki fe’lli birikma ekanligini topib olamiz. So‘z birikmalarning hosil bo‘lishida qaysi qo‘shimchalar qatnashganligiga qarab esa ularning qaysi usullar bilan bog‘langanligini topamiz. Mashqni bajarishdan oldin berilgan qoidani diqqat bilan o‘qib, tushunib olinsa, nimalarni topish kerakligi o‘rganilib chiqilsa mashq tez va oson bajariladi. Har qanday metodni qo‘llash uchun, albatta, nazariy bilimlar ham yetarli darajada bo‘lishi zarur.

9-mashq. Qaratuvchi-qaralmish munosabatini bildiruvchi so‘z birikmalari tuzing.Undagi qaratuvchi va qaralmish shakllarining qo‘llanilishini izohlang.[3]

Bu mashqni bajarish oson. Bunda moslashuvli bog‘lanishni qo‘llab so‘z birikmasi hosil qilish kerak. Moslashuvli birikma faqatgina qaratqich kelishigi qo‘shimchadi va egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi. *Ukamning daftari, uyning tomi, o‘quvchilarning formasi.* Doim ham qaratqich qaralmish munosabati belgili ya’ni qo‘shimchalar bilan ifodalanib kelmaydi. Ba’zan qaratqich kelishigi belgisiz qo‘llanilib keladi, buni bilish uchun hokim so‘zdagi egalik qo‘shimchasidan (qaralmishdan) bilib olamiz. Eshik tutquchi birdan ochilib ketdi. Bunda *eshik tutqichi* birikmasi moslashuvli birikma. Ushbu gapda qaratqich belgisiz qo‘llanggan. Hokim so‘zdagi egalik qo‘shimchasi -i orqali qaratqich qo‘shimchasi tiklab olamiz*: eshik tutquchi eshikning tutquchi*. So‘z birikmalari belgili va belgisiz qo‘llanilib keladi. Ularni aniqlash uchun hokim so‘zga qaraladi. Albatta, bu ikki qismga, ya’ni “T” chizmasiga asoslansa, o‘quvchining ko‘z o‘ngida so‘z birikmasining ikki qismdan iborat bo‘lishi, shu qoida shart ekanligi ta’kidlanadi.

Xulosa qilib atadigan bo‘lsak, o‘quvchilarda maktab darsliklari chuqur va tushunarli o‘rgatilishi, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishlari o‘rgatilishi zarur. Har bir darslikdagi har bir mavzular ustida ishlanilib, turli metodlar orqali darslar olib borilishi, o‘quvchilarga darsni yanada samarali o‘tish uchun metodlardan foydalanib o‘tilishi, mavzuning keng o‘tilishida, takrorlashda samarali natijaga erishiladi.